

ANDIJON VILOYATI OLTINKO'L TUMANIDA 2021-2023 YILLARDA  
AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH  
JARAYONI

*Soibov Diyorbek, Mutalibov Ibrohimxon, Umaraliyev Shahzod*  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*  
*“Moliya” fakulteti 82-guruh talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Andijon viloyat Oltinko'l tumani 2021-2023 yillarda tashabbusli budjetlashtirish jarayoni, ajratilgan mablag'lar miqdori, amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tashabbusli byudjet, openbudget.uz, tashabbus, ovoz berish, moderatsiya, ishchi komessiya, g'olib loyihani aniqlash, “Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi”, shartnoma tuzish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Andijon viloyati Oltinko'l tumani misolida 2021-2023-yillarda “Tashabbusli byudjet” loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishib chiqdik.

Quyidagi 1-jadvalda Andijon viloyati Oltinko'l tumanida tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar qay tartibda taqsimlanishi va sarflanishini ko'rish mumkin.. 2021-yil tasabbuslarni moliyalastirish uchun 1 418 000 ming so'm ajratilgan, 2022-yilda esa qariyb 11 145 163 ming so'm va 2023-yil 24 902 740 ming so'm miqdorida mablag'lar ajratilgan.

Jadval ma'lumotlar asosida qayd etish mumkinki, 2021-yil boshiga qoldiq yoq 2022-yil esa yil boshiga qoldiq 194 302 so'mni, 2023-yil 958 796 so'mni tashkil qilgan.

Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”ga o'tkazilgan mablag'lar 2021-yil 1418 000 so'mni, 2022-yil 11 145 163 so'mga oshganini, 2023-yilda esa 24 902 740 so'mga oshganini ko'rishimiz mumkin.

## 1-jadval

**Andijon viloyati Oltinko'1 tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun  
yo'naltirilgan mablag'lar miqdori<sup>1</sup>**

(ming so'm)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	194 302	958 736
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	1 418 000	11 145 163	24 902 740
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1 397 724	10 509 000	24 740 000
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'	1 223 698	8 764 546	21 809 413
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	174 026	1 744 454	2 930 587
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	194 302	958 736	1 121 476

"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar esa 2021-yil 1 223 724 so'mni, 2022-yilda 10 509 000 so'mni, 2023-yilda esa 24 740 000 so'mni tashkil qiladi.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida ko'radigan bo'lsak pul mablag'lar tashabbusli byudket loyihalariga yildan yilga oshib kelmoqda. Bu esa jamiyat va xalqimiz tomoidan berilayotgan maummo va masalalar ko'rib yechib kelinmoqda.

Quyidagi 2- jadvalda ko'rishimiz mukmkinki: 2021-2023 yillarda taklif etilgan loyihalar soni va ularga ajratilib sarflangan mablag'lar miqdori bilan tanishinib o'tishimiz mumkin.

Andijon viloyati Oltinko'1 tumanida tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlarda hududiy ichki yo'llarni ta'mirlashga mos ravishda 2021-yil 3 ta loyiha bo'yicha 1 397 724 ming so'm, 2022-yil 10 ta loyiha 10 509 000 ming so'm, 2023-yil uchun 22 ta loyiha 21 809 000 ming so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan.

Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash ishlari bo'yicha 2021-yilda loyiha yo'q, 2022-yilda 1 ta loyiha 416 000 ming so'm, 2023-yil uchun ham 1 ta loyiha 3 062 240 ming so'm pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan.

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash borasida olib borilgan ishlar ko'lami ham quyidagicha: 2022-yilda loyiha yo'q , 2023-yilda 1 ta loyiha bo'lgan

2-jadval

**Andijon viloyati Oltinko'l tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar<sup>2</sup>**

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag' (ming so'mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>		<b>11</b>	<b>15</b>	<b>22</b>	<b>1397 24</b>	<b>105090 00</b>	<b>218090 00</b>
1.	Hududiy ichki yo'llar	3	10	17	732 831	847300 0	178568 22
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash		1	3		416 000	3062 40
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash						
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1		1	29 777		548 750
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		1			300 000	
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	5	1		495 316	420 000	0
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	0	1			900 000	0
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)		1			300 000	
9.	Boshqa tadbirlar	2		1	139 800		341 60 1

Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash loyihalariga 2021-yil 1ta loyiha uchun 29 777 ming so'm, 2023-yilda 1 ta loyiha uchun 548 750 ming so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan.

<sup>2</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash, "Tashabbusli byudjet" da g'olib deb topilgan loyihalalariga 2021-yil 2 ta loyiha 139 800 ming so'm, 2023-yil uchun 341 601 ming so'm pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan.

Quyidagi 3-jadvalda Andijon viloyati Oltinko'l tumanida fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalarini ko'rib chiqamiz.

3-jadval

**Andijon viloyati Oltinko'l tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari<sup>3</sup>**

(ming so'm)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar			8 275 745	11 363 948
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari				
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		494 413	3 685 000	732 981
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	149 900	155 913	508 539
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	494 413	2 617 000	
	Iqtisod qilingan mablag'lar			1 505 811
Qo'shimcha ajratilgan	PQ-5250ga asosan		1 600 000	
	PQ-409ga asosan			11 300 000
	PQ-117ga asosan			
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		<b>1 138 726</b>	<b>16 333 658</b>	<b>24 902 740</b>

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining, "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomi" da Tashabbusli byudjet loyihalari g'oliblarini moliyalashtirish tartibi keltirib o'tilingan.

Unga ko'ra quyidagilar tashabbusli budjet jarayonini moliyalashtirishga yo'naltiriladi: tuman (shahar)lar budjetlarining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 5 foizi; tuman (shahar) budjetlari qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizi; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining budjetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foizi; tuman (shahar) budjetlarida ichki yo'llarni

<sup>3</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

ta'mirlash uchun ko'zda tutilgan mablag'lar; vazirlik va idoralarning tegishli davr uchun tasdiqlangan rivojlantirish dasturlari doirasida ko'zda tutilgan mablag'lar.

Oltinko'l tumani mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar 2021-yil yo'q, 2022-yil 1- chorakda 4 000 000 so'mni, 2-chorakda 1 000 000 so'mni, 2023-yilda bu ko'rsatkich 1-chorakda 5 681 000 so'mni, tashkil qildi. Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'larni tahlil qiladigan bo'sak 2021- yil I chorak 149 000 so'mni 2 chorak 9 100 so'mni tashkil etgan bo'lsa 2022 –yil 1 chorak 155 913 so'mni 2 chorak 261 350 so'mni 2023-yil 1 chorak 508 530 so'mni 2 chorak 165 503 so'mni tashkil etgan .

Jami ajratilgan mablag'lar 2021-yil uchun 2-chorak uchun 373 110 ming so'm 2022- yilda 4-chorak uchun 191 195 2023- yilda 4-chorak 244 064 ming so'mni tashkil etgan

#### 4-jadval

### Andijon viloyati Oltinko'l tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi<sup>4</sup>

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm)
<b>2021-yil</b>			
1.	Ayronchi MFY Obod ko'cha 3 tor ko'chani 100 metr asfalt qilish	434	35 000
2.	Madaniy mehnat -1 MFY Do'stlik ko'chasiga TP (Transformator) o'rnatish	382	65 000
3.	Oltinko'l tumani Madyarchek qishlog'i Davchar ko'chasini 1 km masofada asfaltlash	321	350 000
4.	Oltinko'l tumani Saroy 1 MFY Yangichek ko'chasida joylashgan Transformatorni yangilash	235	75 000
5.	Gulbog' ittfoq MFY 600 metrli ichimlik suvi tortish	321	48 000
6.	Saroy 1 MFY Yangixayot Kochasiga oqova suv uchun Nasos sotib olish uchun	6	15 000

<sup>4</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

7.	Sharq Yulduz MFY aholi uchun toza ichimlik suvi tortish	2	20 000
8.	Bo'ston MFY ga optic tolalaik internet tizimi tashkiul etish kerak	1	15 000
9.	Saroy 1 MFY asosiy yo'lini 1 km qismini asfaltlash	1	350 000
10.	Saroy 2 MFY Mirfayz ko'chasiga ichimlik suvi uchun ichimlik suvi uchun suv nasosi	1	15 000
11.	Boshqa loyihalar	2	430 000
<b>2022-yil</b>			
1.	Bo'ston MFY Yog'du ko'chasini 2.3 km qismini asfaltlash	2351	738 000
2.	Oltinko'l tumanidagi 45-ixtisoslashtirilgan maktabi binosini ichki qismini ta'mirlash	1731	391 000
3.	Oltinko'l tumanida 42-maktab oshxona binosini 100 o'rinli stol bilan ta'mirlash	1265	25 000
4.	Oltinko'l tumani Gulbog' MFYda 5 km ichimlik suvi tarmog'ini tashkil etish	1227	420 000
5.	Oltinko'l tumani Markaz MFY dan Qoshtepa MFY ( Baliqchi chegarasi) gacha yoritish tizimini tashkil etish	1208	900 000
6.	Oltinko'l tumani Ittifoq MFY Saxovat ko'chasini 1 km qismini hamda Nurli hayot ko'chasini 0,7 km qismini asfaltlash	1176	820 000
7.	Ayronchi MYF Obod ko'chani 300 metr ( 1-2-4 tor ko'chalarini)asfaltlashj	1152	145 000
8.	Oltinko'l tumani Saroy-1 MFY Mustaqillik ko'chasini 1,5 km qismini asfaltlash	1138	720 000
9.	Oltinko'l tumani Saroy MFY qabriston atrofiga devor qurish	1131	300 000
10.	Qoraqalpoq MFY ga tegishli 2 ta qabristonga boruvchi maktab ko'chasining 1 km qismini Yuksalish ko'chasining 850 metr hamda Suyunboy ko'chaisning 1 km qismini asfaltlash	13434	1 050 000
11.	Boshqa loyihalar	42386	5 000 000

2023yil			
1.	Katta Oqtepa MFY Yangi hayot ko'chasi 2400 metr qismini asfaltlash	10145	960 000
2.	Oltinko'l tumani Qoraqalpoq MFY ning Ibrat Yusunboy vodiy Gulzor ko'chalarini asfaltlash	9832	1 200 000
3.	Oltinko'l tumani Qoraqalpoq mahallasining yoshlar maktab yuksalish Sokin O'zbekiston ko'chalarini asfaltlash	9445	1 200 000
4.	Mamayusufchik MFY Olmazor va Nodirabegim ko'chalarini 4000 metr qismini asfaltlash	9288	1 200 000
5.	Bo'ston MFY dagi birlashgan Yog'du Buyuk ko'chalarini asfaltlash va ta'mirlash	8936	1 200 000
6.	O'rta Ariq MFy da joylashgan O'rta Ariq Mustahkam Zarafshon Fayzli Barkamol Avlod (hamma ko'cha yonma yon joylashgan )ko'chalarini asfaltlash	8166	1 200 000
7.	Oltinko'l tumanidagi 45-sonli ixtisoslashtirilgan maktab- Internat tom va deraza romlarini to'liq almashtirish kerak.	7695	1 000 000
8.	Ganjiravon MFY Gulchilar Maftukor va Omonlik ko'chalarini 3500 metr qismini asfaltlash	7423	1 200 000
9.	Oqtumor MFY ning uzun ko'chasini 4500 metr qismini asfaltlash	6351	1 200 000
10.	Mehnat MFY da joylashgan 33- ixtisoslashtirilgan davlat umumdavlat maktabing 300 metr o'q devori, eshik deraza va pol qismini yangilash, hamda oshxonasini jihozlash (muzlatgich, gaz plitasi, o'qituvchilar uchun stol stul ,100 o'rinli o'qituvchilar uchun stol stuli va boshqalar )	5080	1 200 000
11.	Boshqa loyihalar	76219	13 180 000

Andijon viloyati Oltinko'l tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida 2021-yili jami 12 ta loyiha g'olib deb topilgan va ularga 1 418 000 so'm pul mablag'lari sarflandi, 2022-yil 15 dan oshiq loyihalar "Tashabbusli byudjet" loyihasi g'olibi deb topilib, bu loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 10 509 000 so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan, bunda jami ovozlar soni 12379 tani tashkil qilgan, 2023-yilda ham 22 dan oshiq loyihalar, 10145 ovozlar soni bilan g'olibo bo'lgan va ushbu loyihalarga 24 740 000 so'm miqdordagi pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki "Tashabbusli byudjet" loyihalarining g'olib deb topilganlar, yo'l tamiriga va umumta'lim maktablari binolarini ta'mirlash sohasiga, shu jumladan

2021-yilda Oltinko'l tuman Oltinko'l tuman Madyarchek qishlog'i Davchar ko'chasini 1 km masofada asfaltlash loyiha yutib chiqqan va 321 ta ovoz to'plab mablag' 350 000 000 ming so'm ajratilgan

2022-yilda Oltinko'l tumani Qoraqalpoq MFY ga tegishli 2 ta qabristonga boruvchi maktab ko'chasining 1 km qismini Yuksalish ko'chasining 850 metr hamda Suyunboy ko'chasing 1 km qismini asfaltlash ushbu loyiha uchun 1 050 00 000 mig so'm mablag' ajratilib moliyalashtirilgan 13434 ta ovoz to'plagan.

2023-yilda eng yirik loyiha sifatida Oltinko'l tumani Qoraqalpoq MFY ning Ibrat Yusunboy vodiy Gulzor ko'chalarini asfaltlash ushbu loyiha 9832 ovoz to'lagan va 1 200 000 ming so'm mablag' bilan moliyalashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo'llanma." Toshkent:"Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Хайдаров НХ "Молия: умумдавлат молияси". Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.



9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Хайдаров Н. Солиқлар ва солиққа tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Машарипов И. Б. Фуқаролик жамиятининг ривожланиш даражасини баҳолаш индекслари. ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ. 2018. 1/6 сон